

**“Olmaliq KMK” AJda tashkil qilingan
aloqa kanallari orqali tizimdagi korrupsiyaviy xatti-
harakatlar hamda huquqbuzarliklar to‘g‘risida kelib
tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish
REGLAMENTI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Reglament “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining Ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarda (keyingi o‘rinlarda – Kombinat) korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Reglament Kombinatning maxsus va alohida tashkil qilingan aloqa kanallari orqali Kombinat xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqida kelib tushgan xabarlar bilan ishlashning asosiy tamoyillari, shuningdek, xabarlarni qabul qilish, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish va ko‘rib chiqishni tashkillashtirish, shuningdek, Boshqaruv raisiga hisobot taqdim etish tartibini belgilaydi.

3. Mazkur Reglament maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Ishonch telefoni – Kombinatning alohida va maxsus tashkil qilingan “Ishonch telefoni”ga kelib tushadigan murojaatlarni markazlashgan holda qabul qilish, tasniflash va tizimlashtirish, shuningdek, o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishini monitoring qilish imkonini beruvchi tizim;

Murojaatchi – aloqa kanallari orqali Kombinat xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida axborot berish uchun murojaat qilgan har qanday jismoniy va (yoxud) yuridik shaxs yoxud Kombinat xodimi;

manfaatlar to‘qnashuvi – Kombinatda muayyan lavozimni egallab turgan shaxsning bevosita yoxud bilvosita shaxsiy manfaati mansab/lavozim (xizmat) majburiyatlarini obektiv va xolis bajarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi yoxud shunday ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar manfaatlar to‘qnashuvi hisoblanadi;

Korrupsiya – Kombinat xodimining o‘z mansab yoxud xizmat (lavozim) mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoxud nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi;

Korrupsiyaviy harakatlar – Kombinat xodimi tomonidan bevosita yoxud bilvosita shaxsan yoxud uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlarini yo‘lida harakat yoxud harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoxud berish, pora berish va/yoxud olish yoxud bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish;

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – amaldagi qonunchilik hamda ichki normativ hujjatlarni korrupsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish,

Kombinat xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va ahloqiy faoliyat olib borishlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui;

Korrupsiyaviy xavf-xatar – xodimlar yoxud uchinchi shaxslar tomonidan Kombinat va/yoxud uning nomidan va (yoxud) ularning manfaatlarini ko'zlab korrupsiyaviy harakatlarni sodir etish xavfi;

Taalluqli (relevant) xabar – Kombinat ijro apparati, tarkibiy bo'linmalari xodimlari ishtirokidagi korrupsiyaviy harakatlar va (yoxud) manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo'lgan xabar;

Xodim – Kombinat va uning tarkibi bilan mehnat munosabatlariga kirishgan har qanday jismoniy shaxs (shu jumladan, Boshqaruv a'zolari);

Xodimning shaxsiy manfaatdorligi – xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida o'zi yoxud uchinchi shaxslarning manfaatlari yo'lida xodimning mansab yoxud xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoxud nomoddiy boyliklar, boshqa mol-mulk va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijoriy yoxud notijoriy manfaatlari).

4. Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo'linmalarning xodimlari ishtirokidagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar hamda huquqbuzarliklar haqida xabar berishga mo'ljallangan maxsus va alohida aloqa kanallarining faoliyati quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi:

maxfiylik va xavfsizlik tamoyili – aloqa kanallaridagi xabarlardan foydalanishga ruxsat berilgan Kombinatning barcha vakolatli xodimlari ushbu xabarlarni vakolatga ega bo'lmagan shaxslarga berishi (oshkor qilish) qat'iy ta'qiqlanadi. Basharti, murojaatchi xabarni yuborganligi haqida boshqa xodimlarga yoxud uchinchi shaxslarga o'z ixtiyoriga ko'ra, jumladan, ehtiyotsizligi natijasida oshkor qilgan bo'lsa, bunday holatda Kombinat xodimlari, maxfiy xabarning oshkor bo'lishi va uning oqibatlariga javobgar bo'lmaydi;

Qonuniylik tamoyili – Kombinatning maxsus tashkil etilgan aloqa kanallariga kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, qayta ishlash va ko'rib chiqish qat'iy ravishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari hamda ushbu Reglament talablariga muvofiq amalga oshiriladi;

Murojaatchining ta'qib qilinmasligi tamoyili – aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy harakatlar yoxud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida o'z ixtiyori bilan xabar bergan jismoniy yoxud yuridik shaxs, xususan Kombinat xodimi xabarning mazmunidan qat'iy nazar biron-bir shaklda javobgarlikka tortilmasligi kafolatlanadi. Ushbu qoida, bila turib tuhmat yoxud yolg'on ma'lumotlar bergan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi;

Murojaatchi bilan majburiy tartibdagi qayta aloqa tamoyili – basharti xabar anonim bo'lmasa, uni ko'rib chiqish natijalari Kombinat tomonidan murojaatchiga yetkazilishi shart;

Ta'sir choralari qo'llashning majburiyligi tamoyili – korrupsiya fakti tasdiqlangan taqdirda, Kombinat boshqaruvi a'zolari hamda Komplaens-nazorat xizmati aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi.

2-bob. Korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari

5. Taalluqli (relevant) xabar quyidagi aloqa kanallari vositasida yuborilishi mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi (<https://pm.gov.uz/>) orqali;

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (<https://anticorruption.uz/uzc/item/report-corruption>) orqali “Olmaliq KMK” AJning internet tarmog‘idagi rasmiy veb-sahifasi (<https://agmk.uz/ru/menu/helpline->) yoxud elektron pochta manzili orqali (stop.corruption@agmk.uz);

“Olmaliq KMK” AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari (misol uchun Facebookdagi rasmiy sahifasi <http://www.facebook.com/agmkofficial>) orqali;

“Olmaliq KMK” AJning Ishonch telefon raqamlari orqali: (+998 70) 619-23-33; (+998 78) 141-93-33 (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali);

“Olmaliq KMK” AJning telegram (http://t.me/ao_agmk) yoxud boti (@OKMK_OFFICIAL_bot)

“Olmaliq KMK” AJ rahbariyati yoxud Komplaens xizmatiga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilish orqali (+998 78) 141-90-99 (Call-center); (+998 78) 141-90-09 (Kommutator) (+998 70) 619-56-31 (ofis-menejer xizmati – xatlar yuborish uchun);

huquqni muhofaza qiluvchi organlar orqali (371) 232-10-07 yoxud (Telefon: 71 202 04 02 (ichki: 431) E-mail: info@anticorruption.uz);

ushbu Reglamentda nazarda tutilmagan boshqa shakldagi aloqa kanallari vositasida.

6. Kombinatning aloqa kanallari to‘g‘risidagi axborot Kombinatning internet tarmog‘idagi rasmiy veb-sahifasida (<https://agmk.uz/ru/contacts>), ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa va kanallariga joylashtiriladi, shuningdek, xodimlarga davriy ravishda yuboriladigan elektron xatlarga, tarqatma hamda o‘quv materiallariga majburiy tartibda kiritiladi. Bundan tashqari, aloqa kanallari to‘g‘risidagi axborot Kombinat balansidagi barcha bino va inshootlar fasadida joylashtiriladigan tematik plakatlar, flaerlar, ijtimoiy roliklar va hokazolarda ham aks ettiriladi.

3-bob. Aloqa kanallari orqali kelib tushgan taalluqli (relevant) xabarlarni qabul qilish tartibi

7. Kombinat xodimlari ishtirokida sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yoxud bunday xatti-harakatlar to‘g‘risidagi relevant xabarlarni ko‘rib chiqish uchun – Kombinat Ijro apparatidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tuzilmasi – Komplaens-nazorat xizmati (keyingi o‘rinlarda – **Komplaens-nazorat xizmati**) mas’ul hisoblanadi.

8. Kombinatning quyidagi aloqa kanallaridan kelib tushgan taalluqli (relevant) xabarlar Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat

organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida Namunaviy nizom” hamda “Olmaliq KMK” va uning tarkibida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom” talablarida nazarda tutilgan tartibda ro‘yxatga olinadi va rezolyutsiya uchun Boshqaruv raisiga kiritiladi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali;

Kombinatning rasmiy veb-sahifasi yoxud rasmiy elektron pochta orqali;

Kombinatning telefon raqamlari orqali (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali);

Kombinat boshqaruvi a‘zolariga yoxud Komplaens-nazorat xizmati rahbariga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilish;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar orqali;

O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi orqali yoxud korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari.

9. Kombinatning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari, shuningdek telegram boti orqali kelib tushadigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlarni qabul qilish uchun Komplaens-nazorat xizmati xodimlaridan biri mas‘ul etib tayinlanadi.

Bunda, taalluqli (relevant) xabar kelib tushganda Komplaens-nazorat xizmati mas‘ul xodimi murojaatchi bilan elektron yozishma yo‘li bilan yoxud telefon orqali bog‘lanib zarur axborotni aniqlashtiradi, xabarni “Relevant xabarlarni qayd etish Reestri”da ro‘yxatga oladi va ma‘lumotni zudlik bilan (24 soat mobaynida) Boshqaruv raisiga kiritilishini ta‘minlaydi.

Komplaens-nazorat xizmati mas‘ul xodimi kelib tushadigan xabarlarni haftaning Dushanba kundan – Juma kunigacha soat 08:00 dan 17:00 ga qadar ro‘yxatga oladi va qayd qiladi. Basharti, xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushsa, bunday xabar navbatdagi ish kunida aniqlashtirish uchun saqlanadi.

10. Basharti murojaatchi o‘z xabarini tasdiqlash uchun qo‘shimcha materiallarga, masalan, fotomateriallar, hujjatlar, audio va videoyozuvlarga ega bo‘lsa, murojaatni qabul qilishga mas‘ul xodim ularni taqdim etish bo‘yicha foydalaniladigan aloqa kanallari (telegram boti yoxud elektron pochta)ni ko‘rsatadi va taqdim etiladigan ma‘lumotlarning maxfiy ekanligini murojaatchiga alohida bildiradi. Mazkur ma‘lumotlar taalluqli (relevant) xabarga ilova sifatida rasmiylashtiriladi.

11. Boshqaruv raisi taalluqli (relevant) xabarni tezkorlik bilan tahlil qilish va ko‘rib chiqish uchun Komplaens-nazorat xizmatiga hamda boshqa tarkibiy ijrochi bo‘linma va tuzilmalar rahbarlarining F.I.SH. ko‘rsatgan holda topshiriq (rezolyutsiya)ni imzolab tushiradi.

12. Komplaens-nazorat xizmati taalluqli (relevant) xabarni olgandan keyin 1 (bir) soat ichida uni ilovaga muvofiq shaklda “Kombinat va uning tarkibida korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reestri”da (keyingi o‘rinlarda matnda – Reestr deb yuritiladi) ro‘yxatga olishi va ushbu Reglamentning 4-bobiga muvofiq ko‘rib chiqishi lozim.

13. Boshqaruv a'zolari, Kombinat ijro apparati bo'linmalari rahbarlari, shuningdek barcha tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, murojaatchilarga Kombinat xodimlari ishtirokida sodir etilgan korrupsiyaviy xatti-harakatlar hamda huquqbuzarliklar to'g'risida anonim xabarlar qoldirish imkoniyatini yaratib beradi va bunday aloqa kanallarining uzluksiz ishlab turishini kafolatlaydi.

Anonim xabar kelib tushgan taqdirda, Komplaens-nazorat xizmatining ma'sul xodimi xabarni reestrda ro'yxatdan o'tkazishdan oldin imkon mavjud bo'lgan taqdirda, anonim xabar yuborgan murojaatchi bilan bog'lanib quyidagilarni bildirib o'tishi lozim:

Anonim xabarga javob berish uchun murojaatchi bilan bog'lana olmasliklari mumkinligi haqida alohida ma'lum qilishi;

Anonim murojaatchidan ishga oid qo'shimcha zarur ma'lumot olish imkoniyati bo'lmagan taqdirda xabarni to'liq, xolis va har tomonlama o'rgana olmasliklarini bildirishi;

murojaatchiga u bilan bog'lanish uchun alohida anonim aloqa kanali tashkil qilishni taklif qiladi (ya'ni, shaxsi ko'rsatilmagan elektron pochta manzili, Telegram messendjeridagi maxfiy chat orqali va hokazo aloqa kanallari);

Anonim murojaatchi o'z arizasidan voz kechmagan taqdirda, xabarni qabul qilgan Komplaens-nazorat xizmatining mas'ul xodimi mazkur Reglamentda nazarda tutilgan tartibda xabarni qabul qilishi va xabarni Reestrda qayd etishi shart.

14. Olingan xabarlarni ko'rib chiqish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etishning sabab va sharoitlari ham tahlil qilinadi va kelgusida ularning oldini olish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi.

15. Olingan xabarlar bo'yicha barcha taalluqli (relevant) materiallar, hujjatlar va ma'lumotlar (shu jumladan, qabul qilingan qarorlar va murojaatchilarga yuborilgan javoblar) Kombinat Ijro apparatining Murojaatlar bilan ishlash tuzilmasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatga, biroq 10 (o'n) yildan kam bo'lmagan muddatda saqlanadi.

16. Taalluqli (relevant) xabar Kombinatning ijro apparati xodimlariga yoxud tarkibiy bo'linmalar xodimlariga kelib tushgan taqdirda, bunday xabarni qabul qilgan xodim zudlik bilan yozma shaklda o'zining bevosita rahbarini va/yoxud ijro apparatidagi Komplaens-nazorat xizmatini, kelib tushgan xabar (murojaat) to'g'risida xabardor qiladi. Komplaens-nazorat xizmati rahbari olingan xabarni mazkur Reglamentning 11-bandida bayon etilgan tartibga muvofiq ko'rib chiqilishini ta'minlaydi.

17. Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar, sex, laboratoriya va boshqalar), o'zlarining alohida Korrupsiyaga oid xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar haqidagi xabarlarni qabul qilish Reestrini yuritadilar.

4-bob. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar hamda huquqbuzarliklar Haqidagi xabarlarni ko'rib chiqish tartibi

18. Komplaens-nazorat xizmatiga kelib tushgan barcha xabarlar ushbu ichki nazorat tuzilmasining mas'ul xodimlari yoxud Boshqaruv raisi topshirig'iga asosan Kombinat ijro

apparati bo'linmalari yoxud tarkibiy bo'linmalar (korxonalar, sex, laboratoriya va boshqalar) tomonidan ko'rib chiqiladi.

19. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar hamda huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarni ko'rib chiqish jarayoniga, harakatlari ustidan taalluqli (relevant) xabar kelib tushgan shaxs (xodim) yoxud ko'rib chiqish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xodim va mas'ullarni jalb qilish qat'iy ta'qiqlanadi.

20. Xabar kelib tushganda, Komplaens-nazorat xizmati xodimi dastlabki tekshirishni o'tkazib, uning taalluqli (relevant)ligini tahlil qiladi, ya'ni xabarda ko'rsatilgan ma'lumotning Kombinatga bevosita taalluqli (relevant) ekanligi hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va (yoxud) manfaatlar to'qnashuviga oid ekanligini tekshiradi.

Dastlabki tekshirish, taalluqli (relevant) xabar Komplaens-nazorat xizmatiga kelib tushgan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

21. Mazkur Reglamentning 19-bandida nazarda tutilgan dastlabki tekshirish natijalaridan qat'iy nazar, bunday axborot Reestrda kiritiladi (qayd qilinadi).

22. Basharti Komplaens-nazorat xizmati xodimi xabar taalluqli (relevant) emas degan xulosaga kelsa, bunday xabar bir ish kuni davomida Kombinatning tegishlilik bo'yicha boshqa tarkibiy bo'linmasiga (bo'linmalariga) bildirgi asosida o'tkazilishi lozim.

23. Basharti xabarda korrupsiyaviy harakatlar va (yoxud) manfaatlar to'qnashuvi haqida ma'lumot hamda xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa, Komplaens-nazorat xizmati xodimi Kombinatning ichki normativ hujjatida belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o'tkazish tashabbusi bilan Komplaens-nazorat xizmati boshlig'iga murojaat qiladi.

24. Taalluqli (relevant) xabarlarni mazmunan ko'rib chiqish Kombinatga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oylik muddat mobaynida, tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallarni so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari, Kombinat Boshqaruvi raisi tomonidan istisno tariqasida uzog'i bilan qo'shimcha yana bir oy muddatga uzaytirilishi mumkin va bu haqda murojaatchiga yozma shaklda (anonim murojaatlardan tashqari) xabar qilinadi.

25. Murojaatga javob Komplaens-nazorat xizmati tomonidan tayyorlanib, Boshqaruv raisining (uzrli holatlarda Boshqaruv raisining o'rinbosarlaridan birining) imzosi bilan rasmiylashtiriladi.

26. Taalluqli (relevant) xabarlarni ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra o'rganish natijalari va qo'llanilgan ta'sir choralari ko'rsatilgan javob xati tayyorlanadi va belgilangan tartibda murojaatchiga yuboriladi. Javob xatida, murojaatchiga murojaat yuzasidan qabul qilingan qaror ustidan, Basharti jismoniy yoxud yuridik shaxs ushbu qarorga rozi bo'lmasa, shikoyat berish huquqini amalga oshirish tartibi tushuntirilishi shart.

27. Ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar va telegram-bot orqali kelib tushgan taalluqli (relevant) xabarga javob murojaatchiga elektron shaklda ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar yoxud telegram-bot orqali yuboriladi.

5-bob. Hisobdorlik

28. Reestr dan, Komplaens-nazorat xizmati xodimlari, xabarlarni ko'rib chiqishda ishtirok etgan tegishli boshqa davlat organlari va Kombinat xodimlari (faqat shunday xabarlarni ko'rib chiqishga mas'ul bo'lgan xodimlarga), shuningdek Boshqaruv raisi foydalanishi mumkin.

29. Reestr ma'lumotlari asosida Komplaens-nazorat xizmati har chorak yakuni bilan Kombinat Boshqaruv raisiga, Kombinat xodimlari ishtirokida sodir etilgan korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklarga taalluqli (relevant) bo'lgan xabarlar to'g'risidagi hisobotni taqdim etadi va unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

kelib tushgan taalluqli (relevant) xabarlar va ko'rib chiqilgan taalluqli (relevant) xabarlar soni;

korrupsiyaviy harakatlar, manfaatlar to'qnashuvi holatlari tasdiqlangan taalluqli (relevant) xabarlar soni;

ko'rib chiqish muddatlari buzilgan taalluqli (relevant) xabarlar soni;

taalluqli (relevant) xabarlarni ko'rib chiqishning o'rtacha muddati;

murojaatchilar tomonidan eng ko'p foydalaniladigan aloqa kanallari va boshqa statistik tahliliy ma'lumotlar.

6-bob. Yakuniy qoida

30. Mazkur Reglament talablarini buzish belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

31. Mazkur Reglament, Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarining qoida va talablari o'zgarganda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

